

**TASVIRIY SAN'ATNING ASL MOHIYATI, INSON HAYOTIDA TUTGAN O`RNI.
SIVILIZATSIYALAR VA MADANIYATGA QO`SHGAN HISSASI**

Choriyeva Madina Abduraxmonovna

Surxondaryo viloyati Uzun tumani Jiydabuloq mahallasida joylashgan 67-umumiy o`rta ta`lim maktabining Tasviriy san`at va Muhandislik grafikasi fani o`qituvchisi

Аннотация: *Содержание данной статьи заключается в том, что представлены истоки того, как и где возникло изобразительное искусство и его развитие, роль и значение изобразительного искусства в нашей жизни, вклад искусства и изобразительного искусства в развитие древних цивилизаций и культур.*

Ключевые слова: *Изобразительное искусство, творческий подход, Древние цивилизации, роль искусства в развитии культур.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolaning mazmuni shundan ibortaki, tasviriy san'atning qanday va qayerda paydo bo'lganligi va uning rivojlanishi haqida ma'lumotlar, Tasviriy san'atning hayotimizda tutgan o'rni va ahamiyati, San'at va tasviriy san'atning qadimgi sivilizatsiyalar va madaniyatlar rivojiga qo'shgan hissasi haqida manbaalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Tasviriy san'at, ijodiy yondashuv, Qadimgi sivilizatsiyalar va madaniyatlarning evalutsion rivojida san'atning o'rni*

Abstract: *The content of this article is that the sources of how and where fine art appeared and its development, the role and importance of fine art in our lives, the contribution of art and fine art to the development of ancient civilizations and cultures are presented.*

Key words: *Fine art, creative approach, Ancient civilizations, the role of art in the development of cultures*

KIRSH

Tasviriy san'at - bu so'z zamirida insonlarning yuksak hislat va fazilatlarini kamol topdirib, yorqin kelajakka da`vat etadigan tuyg`ularni jumbushga keltiruvchi, borliqning inson tomonidan yaratilgan ijod mahsulini tushunish lozim. Bunda badiiy estetik didni, ko'z xotirasini rivojlantirish va ranglar jilosini his qilishga, borliqni bilishga, tafakkur qilishga chorlovchi, chuqur ma'no mohiyati borligini anglashimiz kerak. Tasvir va san'at so'zlarining birikmasi bu- sinfiy jihatdan ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarish yuzaga keltiradigan va undan kulolchilik, haykaltaroshlik, me`morchilik, grafik rassomlar tomonidan yaratilgan ijod namunalari tushunamiz. Bu ijod namunalari orqali biz eng qadimdan vujudga kela boshlagan, sivilizatsiyalar zanjiriga chambarchas bog`liq bo'lgan, xalqlarning madaniyati va dunyoqarashiga ulkan hissa qo'shgan, siyosiy va ijtimoiy hayot ta'sirida turlangan va tuslangan, tabiat va falsafiy, diniy qarshlarni o`zida aks ettirgan va kuzatish orqali rivojlangan katta bir dunyoni kashf etamiz.

Asosiy qism: Qadimgi tosh asri, eramizdan avvalgi 3-ming yilikkacha bo'lgan davrlarda Sharqiy Ispaniya, Kavkaz, Old Osiyoda topilgan suratlar diqqatga sazavordir. ("Kiyiklarni ovlash"(Ispaniya) "Kamon otayotgan ovchi" bu asarlar ifodaviy talqinlangan.) Qadimgi Misrda esa Tasviriy san'at marosimlar bilan uzviy bog'lanib rivoj topdi, keyinchalik bu tur Yunonistonda ham vujudga keldi.

Albatta, Tasviriy san'at tarix davomida madaniyatlar va tsivilizatsiyalarning shakllanishida muhim ro'l o'ynagan. Mana bir nechta misollar bilan tanishamiz:

Qadimgi Misr san'ati: - Ierogliflar va monumental haykallar diniy e'tiqodlarni o'zida aks ettirgan va fir'avnlarni kuchini yetkazgan.

- Qabr rasmlari o'lim haqidagi jamiyat qarashlariga ta'sir ko'rsatib, keyingi hayotga sayohatni tasvirlab berdi.

Italiyada Uyg'onish davri san'ati: - Leonardo da Vinchi va Mikelanjelo kabi rassomlar insonparvarlikni tarannum etuvchi, shaxslar salohiyatini ta'kidlaydigan durdona asarlar yaratdilar.

- Mikelanjelo tomonidan chizilgan Sistina cherkovining shifti san'at va diniy ifoda uyg'unligidan dalolat beradi.

Islom san'ati: - Islom san'atida geometrik naqsh va xattotlik nafaqat binolarni bezatibgina qolmay, balki diniy tamoyillarga amal qilgan holda tirik mavjudotlarni tasvirlashdan qochish vositasi bo'lib ham xizmat qilgan.

Xitoy manzarasi: - Xitoyning an'anaviy landshaft rasmlari ko'pincha tabiat bilan uyg'unlikni aks ettirgan, Daoizm va Konfutsiy tamoyillarini aks ettirgan.

Yevropadagi barokko san'ati: - Barokko san'ati dramatik va hissiy uslubi bilan katolik cherkovi tomonidan aksil-islohot davrida kuchli diniy tajribalarni uyg'otish uchun ishlatilgan.

Meksika muralizmi: - Diego Rivera kabi rassomlar Meksika tarixi va ijtimoiy muammolarini tasvirlash, milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy ongini tarbiyalash uchun devoriy rasmlardan foydalanganlar.

XX asrda pop-art: - Pop Art, Endi Uorxol kabi san'atkorlar bilan urushdan keyingi davr iste'mol madaniyatini aks ettirdi, jamiyatning ommaviy ishlab chiqarilgan tovarlarni va mashhurlar madaniyatini qanday qabul qilishiga ta'sir qildi.

Afrika qabilaviy san'ati: - An'anaviy Afrika san'ati, shu jumladan niqoblar va haykallar jamoalar ichida madaniy o'ziga xoslik, diniy e'tiqodlar va ijtimoiy ierarxiyani ifodalashda rol o'ynadi.

Bu misollar, tasviriy san'atning tarix davomida turli madaniyat va sivilizatsiyalarning qadriyatlarini, e'tiqodlarini va o'ziga xosligini ifodalash, shakllantirish va saqlashda qanday qudratli vosita bo'lganini ko'rsatadi.

O'rta Osiyoda ham, hususan, Surxondaryo vohasi, Zarautsoyda niqob, keyin o'ljaga yaqinlashayotgan ovchi aks ettirilgan surat o'tmish hayotining ma'naviy dunyosini his qilishga xizmat qiladi. Xorazm va Sug'dlar davlatidan topilgan yodgorliklardan ko'rinadiki, bu joylar sivilizatsiya boshlanish joyi va maskanidan biri hisoblanadi. Boysundagi teshiktosh

g'orida topilgan rasmlar ham bunga yaqqol misol bo'la oladi. Tasviriy san'at O'rta Osiyoda 13-16-asrlarda kuchaya boshladi va ilmiylikka asoslandi. 17-19-asrlarda ranglarning rang-barangligi vujudga keldi. Tasviriy san'atga o'z hissasini qo'shgan, vohamizda, Sherobodning go'zal maskanlaridan biri bo'lgan Poshhurd qishlog'ida tug'ilgan, u yerning go'zalligini va insonlarining ichki kechinmalarini, orzu-umidlarini tasvirlarda ifoda qila olgan benazir rassom Ro'zi Choriyev san'at orqali umum insoniyatni, ularning oddiy hayotini go'zal ranglarda uyg'unlashtira olgan insondir. Tasviriy san'at qanchalik olam jozibali va sehri go'sha ekanligini yanada beqiyos namoyon etadi. Ranglar va undagi barcha kompazitsiyalar rassom va insoniyat olami va bashariyatni yaqqol jozibasini ifoda eta oladi, go'zallik, betakrorlik, takrorlanmaslik, mashaqqat, qobiliyat, taffakur va barcha ongni rivojlantiruvchi vositalar tasviriy san'atda mavjuddir. Bunda o'ziga xos yo'nalish va yondashuvlar, moslik va norasmiylik, ta'surot, hayajon, umuman, har bitta yo'nalishning har bitta jabhasi insoniyatni doimo hayrat ummoniga g'arq qiladi. Sabr va toqat, chidam va bardosh, noziklik, bular barchasi tasviriy san'atda mujassam. Quyoshning chiqishidan tortib, tun qo'ynidagi zulmat, tasviriy san'at ranglari orqali betakror tarzda yoritiladi. Bunda fazoviy kenglik tushunchasi keng yoritiladi. Insonlarga ranglar orqali ta'sir ko'rsata olish mumkinligini, qadimda yuksak bilim sohiblari bo'lgan ajdodlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Kamoliddin Behzodlar o'z asarlarida keltirib o'tgan. Abu Rayhon Beruniyning "Al Javohir" asarida 200 dan ortiq ranglar keltirilgan. Ularning insonga ta'siri batafsil bayon qilingan. Hozirgi kunga kelib tasviriy san'atning turli yo'nalish va yondashuvlari, sohalari yanada chuqurlashtirildi. XX asrda murakkab va ziddiyatli, bir tomonda klassik, realistik san'atning uslublari ifodaviy vositasiga e'tibor kuchaydi. Har bir obraz chuqur o'rganilmoqda. Yangicha uslub, yangicha qarash bilan ifoda etishga intilmoqdamiz. Shubilan birgalikda Tasviriy san'at sababli jahondagi yirik muzeylar barpo etildi. Bunday muzeylar ilk bor XXII-XIX asirda paydo bo'ld. Dehlida 1948-yilda, Pekinda "Gug" muzeyi 1914-yil, Yaponiyada Tokio milliy muzeyi 1871-yil, Biritaniyada 1847-yil, Drezdin galeriyasi 1847-1854 yillar K Xunel tomonidan qurilgan galireya 1860-yil ochilgan, Luvir muzeyi Fransiyaning parij shaxrida 1791-yilda muzey tusini olib 1793-yilda ochildi, Metro politen 1970-yilda qurildi va mashhur rassomlar ishlari joy oldi., Ermitaj 1764-yilda tashkil topgan 1852-yilda ochildi. Shu qatori bizda ham O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I Karimov tashabbusi bilan 2004 -yilda Toshkentda tasviriy san'at galleriyasi barpo etildi.

XULOSA

Tasviriy san'at, shaxsiy ifoda uchun ham kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi, odamlarga o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va tajribalarini o'ziga xos usullar bilan etkazishga imkon beradi. Badiiy ijod, hoh rasm, hoh haykaltaroshlik, hoh multimedia inshootlari bo'lsin, inson tajribasining murakkabliklarini talqin qilish va tushunishimiz mumkin bo'lgan ob'ektivni taqdim etadi. Muloqotning bu shakli nafaqat o'z hayotimizni boyitadi, balki suhbatlar va umumiy talqinlarni keltirib chiqarish orqali boshqalar bilan aloqalarni osonlashtiradi.

Bundan tashqari san'at o'zgarishlarni ilhomlantirish va qo'zg'atish qobiliyatiga ega, ijtimoiy va siyosiy harakatlar uchun katalizator bo'lib xizmat qiladi. U me'yorlarga e'tiroz bildirishi, hokimiyatni shubha ostiga qo'yishi va adolatni himoya qilishi, muhim ijtimoiy masalalar bo'yicha kengroq muhokamaga hissa qo'shishi mumkin.

Ta'limda tasviriy san'at bilan shug'ullanish ijodkorlikni, muammolarni hal qilish va turli nuqtai nazarlarni qadrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu estetikani umrbod qadrlashni rag'batlantiradi va madaniy o'ziga xoslik tuyg'usini rivojlantiradi.

Umuman olganda, tasviriy san'at dunyoni qanday idrok etishimizga ta'sir qilish, introspektsiyani rag'batlantirish va jamoalarimiz va global jamiyatda o'zaro bog'liqlik tuyg'usini rivojlantirish orqali hayotimiz tuzilishiga hissa qo'shadi.

Ushbu maqolada men tasviriy san'atning mohiyati, ularning rang barangligi va ifodaviy vositasi, yo'nalish va yondashuvlarini, ularning qanday paydo bo'lganligi haqida ma'lumot berishga harakat qildim. Badiiy dunyoqarash va estetikamizni rivojlantirish insonni avvalo inson ekanligini anglatuvchi eng muhim vosita deb hisoblayman. Shu jihatimiz bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turamiz, o'zligimiz va qalbimizni san'at orqali sof saqlaymiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Tasviriy san'at tarixi (O. N. Shomuradov)
2. Abdurasulov S. Tolipov N. Rang tasvir. Toshkent 2005
3. Abduraximov G. M Rang tasvir va Girafik. Toshkent 1995
5. Abdullayev N. san'at tarixi. Toshkent San'at 2001
6. www. Ziyo-net. uz
7. www. nhgfintal. Uz